

---

## QAT'IY NAZORATGA OLINDI



Mustaqilligimizning 32 yilligi arafasida Tegirmonboshi mahalla fuqarolar yig'ini "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlari asosida salmoqli ishlar amalga oshirilib, mahallada katta bayram o'tkazildi.

Bugun tuman hokimi Dilshodjon Djalilov Tegirmonboshi MFYda hokim o'rinbosarlari, tashkilot, korxonalar rahbarlari ishtirokida yakuniga yetkazilmagan ishlar bo'yicha hisobot yig'ilishi o'tkazildi.

Mahallada oxiriga yetmagan kommunal sohadagi ishlar va mezonlarda belgilangan bir necha masalalar ko'rib chiqildi.

Tuman hokimi yakuniga yetmagan ishlar bo'yicha tegishli mas'ularga tanbeh berib, bartaraf etish chorasini ko'rish topshirig'ini berdi. Muddat belgilanib, qat'iy nazoratga olindi.

### **YoZYovON TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATI**

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-09-06 18:47:54